



VOHA RAQSLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.

G'affarova Nurxon Absoyat qizi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi

San'atshunoslik ilmiy tadqiqot instituti

mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8246060>

Annotatsiya: Ushbu maqolada voha raqslarining paydo bo'lgan ilk davrlari, shuningdek, rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan bir qancha omillar keltirib o'tiladi. Shuningdek, bugungi kungacha voha raqslarining bizgacha yetib kelishiga o'z hissasini qo'shgan ijodkorlar bilan bir qatorda hududda faoliyat yuritayotgan bir nechta folklor ansamblar ijodi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Surxon vohasi, surxoncha raqs, Boysun, erkaklar raqsi, Farg'ona, Buxoro, Xorazm raqs maktablari.

Raqs san'at turi bo'lib, musiqaga monand ritmik tana harakatlarida namoyon bo'ladi. Raqs turli madaniyatlarda mavjud va hissiyotlar, ijtimoiy aloqalarni bildirish shakli sifatida yoki ko'ngilxushlik uchun ijro etiladi. Raqs ommaviy (to'y-bazmlarda), ijtimoiy (vals), ijroiyy (sahnada), tantanali (hind raqslari), musobaqa (badiiy gimnastika) va erotik (striptiz) turlarga ajratiladi. Raqs harakatlari orqali fikrlar va hissiyotlarni yetkazish, hikoyanavislik qilish mumkin. Raqs evolutsiyasi natijasida turfa uslublar kelib chiqdi. Masalan, nisbatan yaqinda paydo bo'lgan "break dance", "hip-hop" madaniyatga oiddir; afrikacha raqs esa izohlanishlidir; "balet" va "vals" klassik raqs bo'lsa, "step dance" zamonaviydir.

Raqqos yoki raqqosaning garmonik tana harakati va holatlari, plastik ifodaviyligi va yuz imo-ishoralari, ritm, temp, kompozitsiya orqali obraz yaratish raqsning asosiy vositasidir. Raqs insonning mehnat jarayoni va borliqdan olgan emotsional taassurotlari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Dastlab qo'shiq va so'z bilan bog'liq bo'lib, keyinchalik mustaqil san'at turiga aylangan. Raqs asrlar davomida takomillashib, barqaror shakllarga ega bo'la borgan. Ijrochining libosi raqs obrazlariga aniqlik bergan va raqsning mohiyatini ochishda muhim rol o'ynagan.

Har bir xalqning raqs an'analari, ijro uslubi, plastik tasviriy vositalari bo'lib, ular tarixiy, ijtimoiy va geografik sharoitlar ta'sirida tarkib topib rivojlangan. Raqs xalq marosimlari, bayramlarining tarkibiy qismi bo'lib, ular bilan bog'liq holda xorovod va marosim o'yinlari paydo bo'lgan. Xorovodlar asta-sekin marosim o'yinlaridan xalos bo'lib, xalq turmushining ayrim tomonlarini aks ettira boshlagan. Xalq raqsida ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik va





hunarmandchilik bilan bog'liq mavzular, shuningdek, xalqning bosqinchilarga qarshi kurashi va lirik kayfiyatida o'z aksini topgan.

O'zbek milliy raqslari xalqning turmushi, tabiati, makoni, ramziy marosimlari, xalq hayotining o'zidan tug'ilgan va shu xalqning hayotini tasvirlab kelgan. Shuning uchun ham raqs san'ati xalqimiz hayotining madaniyat va ma'rifatining bir bo'lagi sifatida yashab kelmoqda. Bu jarayonlarni Surxondaryo viloyatida rivojlangan raqslarda ham ko'rish mumkin. Lekin mazkur raqslar haqida juda kam ma'lumotlar mavjud.

Surxon vohasi raqslari, shuningdek, raqs uslubi haqida 2001 yilda nashr etilgan L. Abdeyevaning "O'zbek milliy raqsi tarixidan" deb nomlangan kitobida ham Voha raqs uslubi haqida qisqagina umumiy gaplar yozilgan va Boysun tumanida mavjud bo'lgan tarixiy raqslar haqida bir qancha ma'lumotlar tilga olingan xolos. Surxon vohasining raqs san'ati o'ta milliyligi, shuningdek, bevosita yuqorida tilga olingan yo'nalishning faqatgina xalq ijodiyotiga xosligi tufayli Sovet mafkurasidagi mahalliy rahbarlar tomonidan eskilik sarqiti sifatida qabul qilinganligi ham Surxondaryo raqs uslubining rivojiga uning turli xil mavsumiy, marosimiy, urf-odat va an'anaviyligini saqlashda, asrab-avaylashda xalaqit bergan va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Ushbu omillar Surxon raqs maktabi uslubi va ushbu maktabga mansub raqslar, raqslardagi turli harakatlar tasviri haqida yanada ko'proq ilmiy tadqiqotlar olib borishni talab etadi.

Vohada raqs san'atining rivojlanishida folklor-etnografik ansambllarining o'rni alohidadir.

Raqs san'ati o'z ijodkor ijrochilari bilan yashab keladi. Surxon vohasining qadimiy raqsLARining bilimdoni va ijrochisi bo'lgan qariyalar olamdan o'tdi. Lekin, baribir Surxon raqslari butunlay yo'qolib ketmadi. Ushbu raqsLarning saqlanib qolishida Boysun tumanidagi ijodkorlarning hissasi katta desak mubolag'a bo'lmaydi. Surxondaryo viloyatining shimoliy-sharqiy hududidagi Boysun tog' tizmasining yonbag'rida joylashgan Boysun tumani Respublikamizning qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri hisoblanadi. Boysun qadimdan o'zining san'ati bilan mashhur bo'lib kelgan. XX asrning boshlarida yashagan boysunlik san'atkorlar Hoji Bolta raqqosning ijro etgan raqslari, Orzigul ismli raqqosa ayolning betakror ijrolari, hofiz Usta Qurbon Davlatmamat o'g'li va Mulla Juma Dutoriylarning qo'shiqlari haqida Boysun aholisi orasida hozirgacha afsonalar yuradi. Boysun tumanida san'atning ota merosligi, davomiyligi hozirgacha uzilmagan va "Boysun" folklor-etnografik xalq ansambli buning tirik misolidir.





1980 yillarda “Boysun” folklor etnografik ansambli xalqimizning qadimiy

qo’shiqlarini yig’ib, qayta tiklay boshladi. Ular tomonidan “Sust xotin” marosim qo’shig’i ham aholi orasida so’rab-surishtirilib qayta tiklanilgan “sahnaviy” ko’rinishda ijro etishdi.

Unda marosimishtirokchilari qo’shiq ijrosida raqsga tushib, turli xil qiziqchilik qilishgan. Boysun folklore etnografik ansambli to’plagan va yig’gan marosim raqsida erkak va ayollar birgalikda qulochlarini yoyib, kaft va panjalarini ochgan qolda goh aylanib, goh oyoqda ritmik harakat qilib, kuy-qo’shiq naqoratida osmonga ltijo qilgan holda o’yinga tushishgan.

Ayrim raqqoslar ikki tizzalab o’rtaga o’tirib olib, turli qo’l va kaftlarini qimirlatgan holda o’ynaganlar.

Surxon vohasi raqslarini tog’lik Boysun tumanidagi “Shalola” ashula va raqs ansambli ham ancha rivojlantirgan. 1975 yilda Polsha Respublikasining Zakopene shahrida bo’lib o’tgan VII jahon tog’lik o’lkalari folklor festivalida qatnashib, “Kumush bolta” sovrindori bo’lganidan keyingina san’at ahlining e’tiborini tortgandek bo’ldi. Vaholanki, hozirgi kunga kelib surxoncha raqs harakatlari Respublikamizdagi aksariyat folklor ansambllari harakatlarida keragidan ortiq foydalanilishi, uning chegaralanishini ham taqozo etib qoldi.

Surxon raqslari boshqa o’zbek raqs maktablaridan ko’chmanchi aholining turmush tarzi bilan bog’liq holda yuzaga kelganligi jihatidan ajralib turadi. Yengil

va dadil qadam tashlash, ma’noli qo’l harakatlari, gavdaning mayin harakatlanishi

bilan boyatilgan ayollar raqsida aksariyat hollarda qoshiq, urchuq, chig’iriy, chiroq va boshqa ro’zg’or buyumlaridan foydalaniladi. Erkaklar raqsida harakatlari yorqinroq xususiyat kasb etib, doimiy ravishda bir oyoqda sakrash, yerga cho’kka tushgan holda gavdaning aylanma harakatlari, qo’llarning samoga to’g’ri yoki yon tomonga xuddi qanotga o’xshab cho’zilishi bilan ajralib turadi. Erkaklar raqsida sovuq qurollardan pichoq, qilich va yog’och tayoqlar ko’proq ishlatiladi.

Surxon raqsalarining yana bir o’ziga xosligi, Farg’ona, Toshkent va Xorazm raqsalaridan ajralib turishi shundaki, deyarli barcha erkaklar raqsida tana erkin qo’yiladi. Tanaga nisbat bergan “to’lg’ama”, “tebranma” usullar qo’llanganda raqqos butun vujudi bilan raqsni ijro qilayotgani sezilib turadi. Raqqos xuddi butun





olamni o'z vujudiga joylagandek, olamda tanho faqat o'zi qolgandek harakat qiladi.

Bunday raqslarni ijro etayotgan erkak raqqos egniga yaktak yoki oddiy ko'ylak, pastiga sholvor kiygan holda oyoqlarida mukki (yengil teri choriq) bilan raqsga tushadilar.

Surxon raqslarining saqlanishi va targ'ib etilishida Azim Surnay, Doni Mehtar, Usta Qurbon Davlatmurot o'gli, Usta Karim nog'orachi, Abdulla Karim o'g'li, Borat Karim o'gli, Holik Xursandov, Mulla Juma Dutoriy, Xoji Bolta raqqos, Orzigul raqqosa, Xursand Qurbon o'g'li, Mulla Umar Dutorchi, Zikrilla Umarov, Abduxalil Nazarov, Jamila Qultayeva, Shoira Qurbonova, Komil Rahmonov va boshqalarning xizmati katta.

Bugungi kunda Surxon raqs an'analari "Boysun", "Shalola", "Bulbuligo'yo", "Chaman", "Chechalar" va "Qizg'aldoq" namunali bolalar ashula va raqs ansambli kabi folklor-etnografik xalq ansambllarida davom ettirilib, targ'ib qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, 2000 yil.
2. "Interpretation and researches" jurnali.
3. Mastura.uz.

